

**MAQOL VA IBORALARDA TARJIMA, ADEKVATLIK HAMDA
MILLIYLIKNI SAQLASHNING MUAMMOLARI
(NEMISCHA-O‘ZBEKCHA MAQOLLAR TARJIMASI MISOLIDA)**

Musaeva Guzal Nematillayevna,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

„Roman-german tillari tarjimashunosligi“ kafedrasida o‘qituvchisi

E-Mail: guzal-mus@mail.ru

Avlaqulov Avazjon Ismoilovich

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

E-Mail: avazbek_77@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi zamon tarjimachiligida maqol va fraziologizmlarni tarjima qilishda uchraydigan kamchiliklar, yutuqlar va ayrim mulohazali muammolar haqida fikr yuritiladi. Maqollar va iboralar, fraziologizmlarni to‘g‘ri talqin qilish, uni qayta yaratish, unga ekvivalent berish masalalarida bir necha tavsiyalar berilib, izohlar misollarda yoritib berildi.

Kalit so‘zlar. tarjima, tahlil, tasvir, xarakter, qayta yaratish, xalqchil, sinonimik vositalar, mentalitet, obrazli, hissiy-ta’sirchan.

**PROBLEMS OF TRANSLATION, ADEQUACY AND PRESERVATION
OF NATIONALITY IN PROVERBS AND PHRASES**

Abstract: In this article is discussed some of the problems that arise in the translation of proverbs and phraseological units in modern translation. Proverbs and expressions are given, several recommendations on the correct interpretation of a phraseological unit, its reconstruction, bringing its equivalent to it, and the comments are illustrated with examples.

Keywords: translation, analysis, image, character, reconstruction, popular, synonymous means, mentality, figurative, emotional.

Tarjima – xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, qalblarni tutashtiradigan ulkan ma’naviy ko‘prikdir. Shu bilan birga tarjima yuksak san’at mahorat maktabi hamdir. U ona tilining boyligi, jozibasi, go‘zalligini namoyish qiladigan ulkan ijodiy maydon. Shu tufayli unga har doim katta mas’uliyat, talabchanlik bilan yondashilgan. Tarjimon o‘zga tilni qay darajada yaxshi bilsa, o‘z ona tilini ham shunchalik chuqur bilishi, nozik ma’nolarini teran his qilishi, iboralar, hikmatli so‘zlar, maqol va matallar, hayotiy hodisalar, turmush ikir-chikirlarini tarjimada mahorat bilan gavdalantira olishi lozim. Aks holda (asl) asliyatdagi asar tarjimasida muallif hamda asar haqida salbiy fikrlar keltirib chiqarishi mumkin.

Hozirgi zamonda tarjima amaliyoti (tarjima turidan qat’i nazar) ilmga asoslanadi. Albatta, ijod jarayonida intuitsiyaning o‘z o‘rni hamda salmog‘i yo‘q emas. Ilm tarjimaning to‘laqonli va ishonchli chiqishiga yo‘l ochadi. Tarjimashunoslik va uning tarkibiy qismiga aylanib borayotgan, ammo hali o‘zini to‘la namoyon qilib ulgurmagan tarjima tanqidi ilm turidir. Bu ilm tilshunoslik, grammatika, stilistika, semantika, belgishunoslik (semiotika) kabilar bilan yaqin aloqa bog‘lab, mustahkam hamkorlik qiladi, degan edi tarjimashunos olim Ibrohim G‘afurov [1].

Tarjimon o‘ziga xos layoqat, iqtidor, iste’dod, bilim sohibi bo‘lishdan tashqari, uning zakovatida deyarli barcha ijod ahlining faoliyatiga xos tahlil, tasvir, xarakter, yaratish, kayfiyat tug‘dirish va hatto maxsus “o‘qiy bilish” sifatlari jamuljam bo‘lishi lozim. Shundagina tarjima asar xalqchil, o‘lmas va har doim o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila oladigan asar bo‘la oladi. Afsuski nemis tilidan bevosita o‘zbek tiliga o‘girilgan she’r-dostonlar, qissa, hikoya va romanlar soni uncha ko‘p emas. Ammo shuni bemalol aytish mumkinki, o‘tgan asrga nisbatan hozirgi zamon tarjimachiligini bunday deb bo‘lmaydi, ya’ni qissa va dostonlar hatto she’riy tarjimalar ham to‘g‘ridan to‘g‘ri nemis tilidan o‘girilayotgani quvonarli.

Aslida shu paytgacha badiiy asarni o‘zbek tiliga talqin qilishning kamchiliklarini ikki sabab bilan izohlash o‘rinlidir. Birinchidan, g‘arb tillaridan o‘zbek tiliga o‘giruvchi mutaxassislarning yetishmaganligi, faqat rus tiliga tarjima qilingan asarlarnigina o‘girishga ijozat berilgani bo‘lsa, ikkinchidan, nemis tili

tarjimashunoslarining kamligi, Germaniya hayotini, xalqini, madaniyatini o'z ko'zi bilan ko'rib o'rganib kelgan mutaxassis tarjimonlarning yetishmasligida bo'lsa kerak.

Garchi o'zbek kitobxonlari I.V. Gyote, F. Shiller, H. Hayne, H. Mann, B. Breht, I.K. Beher, A. Zegers va boshqa nemis mualliflari bilan XX asrning turli davrlarida tanishish imkoniga ega bo'lgan bo'lsalar, ularning barchasi ruschadan o'girma bo'lib, undan u yoki bu darajada rus she'ri va nasrining ta'siri sezilib turar edi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilk tajribalar amalga oshirildi. Bular Y. Egamovning sa'y-harakatlari tufayli bevosita nemischadan o'girilgan Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari", B. Anitsning "Qashqirlar changalida" romanlaridir.

XXI asr boshlariga kelib tarjimachiligimiz amaliyotida inglizchadan, nemischadan, fransuzchadan va ispanchadan tarjima qilingan yozuvlar odatiylik kasb etyapti, tarjimada faqat til bilishning o'zi kifoya qilmasligi, balki asar yaratilgan tilda gaplashuvchilarning urf-odatlarini, rasm-rusumi, turmush tarzi, fe'l-atvori, ruhiyati, qo'yingki mintalitetini bilish ham shartligi e'tirof etilyapti.

Bu borada bugungi kunda ham muntazam chop etilayotgan "Jahon adabiyoti" jurnali bir qancha ishlarni amalga oshirib, jahon adabiyotining durdona namunalarini bevosita asliyatdan tarjima qilinib o'quvchilarga havola qilinayotgani e'tiborga loyiqdir. Qisqa muddat ichida faqat nemis adabiyotining o'zidan 15 dan ortiq mualliflarning (Gyote, Hayne, H. Hesse, F. Kafka, B. Breht, A. Shimmel, F. Nisse va b.) maqola, nutq, hikoya, she'r va romanlari dunyo yuzini ko'rdi.

Maqollar, matallar, idiomalar, obrazli iboralarni tarjima qilish tarjima amaliyoti sohasining eng sharaflari ijodiy hodisalaridandir. Ularni tarjima qilishda har bir tarjimon o'zicha yo'l tutadi. Bu sharaflari ijodiy qiyinchiliklarni faqat o'zi yengib o'tishi va muvaffaqiyatga-galabaga erishishi mumkin. Bunda unga turli lug'atlarni, xalq tilini bilishdan tashqari kuchli intuisiya madadga keladi.[2] Badiiy tarjima janri tarkibiga kiruvchi, adekvatlikni, milliylikni, o'ziga xoslikni talab qiluvchi ushbu maqollar, iboralar, matallar va obrazli vositalar tarjimasi o'z oldiga muqobilini topishni, topilmaganda mazmuniga mos, yarashli, tarjimashunos Ibrohim G'ofurov ta'biri bilan aytganda hikmatomuz tadbilda ma'nosini chiqarishni maqsad qilib qo'yadi.[2]

Adekvat talqin qilingan maqol va iboralarni misol tariqasida ikki tilda berib tahlil qilib ko‘ramiz:

In der Not schmeckt jede Suppe gut – Ochlikda qotgan non ham shirin.

Ushbu maqoldagi Not so‘zini nemischadan o‘zbekchaga so‘zma-so‘z tarjima qilsak, “muhtojlik, og‘ir ahvol” kabi ma’nomlarni beradi. “Ochlik” so‘zi nemischaga “Hunger” deb tarjima qilinadi. Ammo “Not” so‘zining “Ochlik” so‘zi orqali talqin qilinganligi ushbu maqolning muqobil variantini topib qo‘yishdek ziyrak, so‘z boyligigiga ega tarjimon mahoratini namoyon qiladi. Vaholanki, “Suppe” so‘zi “sho‘rva” ma’nosini beradi. Ammo tarjimon bu maqolni qotgan non jumlasini bilan almashtirib berish orqali o‘zbek kitobxoniga maqolni sof o‘zbekcha variantini yetkazib beradi.

Yoki: Was der Mann kann, zeigt der Wein an – Mastlik-rostlik.

Bu maqolni o‘zbekchaga so‘zma-so‘z tarjima qilsak, “Erkak kishining nimalarga qodirligini vino ko‘rsatadi” degan ibora kelib chiqadi. Yoki:

Wo Speise, da die Mause – Tayyor oshga bakovul. Tayyorga ayyor.

Ushbu maqol esa “Qayerda ovqat bo‘lsa, o‘sha yerda sichqonlar bor (bo‘ladi)” ma’nosini anglatadi.

Tarjimaning to‘g‘ri ekvivalentligini topish xalqning hududiy yaqinligi va uzoqligiga ham bog‘liq. Hududiy joylashuv qanchalik uzoq bo‘lsa, muqobil variant topish ham shunchalik qiyin bo‘ladi.

Nemis xalqining o‘ziga xos mentaliteti bor va bu o‘zbek xalqi mentalitetidan tubdan farq qiladi. Lekin nemis tilidagi aksariyat xalq (yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilganlari ham) maqollarini o‘zbekchaga o‘g‘irganimizda uning asl ma’no-mohiyati ikkala tomon kitobxonlariga ham hech qanday qiyinchiliklarsiz tushunarli bo‘ladi. Maqollarni nafaqat adekvat, balki translasiya Yoki:

Saat macht Saft yoki Wie die Saat, so die Ernte – Nima eksang shuni o‘lasan.

Aussen Putz, unten Schmutz – Usti yaltiroq-ichi qaltiroq.

Was an heute kannst besorgen, das verschiebe nicht auf morgen – Bugungi ishni ertaga qo‘yma.

Zu viel Demut ist Hochmut – Ortiqcha kamtarlik-manmanlikdir.

Erst beobacht, dann gemacht – Avval o‘yla, keyin so‘yla.

Man schlägt den Sack, aber meint der Esel – Qizim senga gapiraman, kelinim sen eshit – kabi maqollar ham yuqoridagi fikrimizga misol bo‘la oladi.

Badiiy tarjimaning maqsadi – xorijiy til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materialini asosida qayta yaratishdan iboratdir. Buning uchun tarjimon birinchi navbatda asl nusxani to‘la-to‘kis idrok etishi, so‘ngra uni o‘z tilida qayta ifodalashi darkor. Natija shunday bo‘lishi kerakki, asliyat o‘z kitobxoniga qanday badiiy-estetik zavq baxsh etsa, uning tarjimasi ham asarni asliyatda mutolaa qila olmaydigan kitobxoniga xuddi shunday taassurot in’om etsin.

Asl nusxa muallifidan voqelikni to‘g‘ri aks ettirish talab etilsa, tarjimondan asl nusxani bekamuko‘st talqin etish talab qilinadi.

Zu viel Demut ist Hochmut – Ortiqcha kamtarlik-manmanlikdir.

Erst beobacht, dann gemacht – Avval o‘yla, keyin so‘yla.

Tilning leksik birikmalariga nisbatan bir muncha murakkab tarkibli lisoniy vositalari bo‘lmish frazeologik birliklari tarjimada adekvat talqin etish tarjima amaliyotining o‘ta murakkab va shu bilan birga, juda mas’uliyatli masalalaridan hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklar nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko‘ra ko‘proq turli-tuman uslubiy vazifalarni ifoda etishda ishtirok etadilarki, ularni ushbu vazifalarini hisobga olingan holda, ularning tarjimada bejirim talqin etishga intilish badiiy asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini qayta yaratish yo‘lidagi jonbozlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Frazeologik birliklarni tarjima qilishning o‘ta murakkab amaliy jarayon ekanligi, asosan, mazkur birliklar tabiatiga ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga bog‘liq jarayondir. Uning ustiga, talay frazeologizmlar milliy xususiyatlarga egadirlarki, bu hol ham tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi (ko‘ndalang qo‘yadi). Bundan tashqari tasvirlanayotgan voqea yoki hodisa qaysi davrda va qaysi mamlakatda yuz berayotgani tarjimon uchun juda muhim hisoblanadi. [3]

Tarjima tilida tanlangan muayyan frazeologik birlikning asl nusxa tarkibida uchragan frazeologizmga uchragan ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos kelishi yoki kelmasligini ilmiy-matniy tahlil asosidagina muayyan qilish mumkin.

Demak, maqollar va frazeologik birliklar tarjimasida ikki xalqning mentalitetidan kelib chiqqan holda erkin tarjima usulidan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Frazeologik birliklar tarjimasida asl nusxa ma'nosiga imkon qadar to'g'ri yondashib, tarjima usullaridan mosini tanlab o'quvchiga yetkazish tarjimonning mahoratiga bog'liq. Bunda asl nusxa mentaliteti, hududiy yaqinligi (joylashuvi), urf-odatlar va shu kabi bir qancha o'ziga xosliklarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://ziyouz.uz/suhbatlar/tarjima-nazariyasi-va-tanqidi-muammolari-davra-suhbati/>
2. Ibrohim G'ofurov. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. O'quv qo'llanma. Toshkent: Mehridaryo, 2008.38-bet
3. Ibrohim G'ofurov. Tarjima nazariyasi.
4. Baymanov Habibullo Abdullayevich, Avlakulov Avazbek Ismoilovich, Sattorova Sattorova Tojimatovna, Raximov Fazliddin Rustamovich, Qalandarova Sofiya Toxirovna, Sattorov Hayrulla Razzoqovich//Italiya. Philosophical Readings//Realization of color-expressive quality lexemes in phraseology (on the example of German and Uzbek languages)// XIII.4 (2021), pp. 1849-1858. 1849
5. Raximov X.R. O'zbek adabiyotining xalqaro aloqalari yoki ona tildan chet tilga tarjima qilish muammolari.\\Zamonaviy leksikografiya, frazeografiya va tarjimashunoslik masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami. 15 sentabr, 2018 y.- Andijon, 2018.-B 31-43.